

MAXSUS TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYANI AMALGA OSHIRISH

Xayitgul Muzaffarova

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrası p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya:Maqolada yordamchi maktab o'qituvchisi imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi, ularga ekologik tarbiyani amalga oshirishda oila bilan hamkorlik o'rnatishi lozimligi, shuningdek, yordmchi maktab o'quvchilari bian ta'lim-tarbiya vazifalarini siyosiy, huquqiy, axloqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga kompleks tizim asosida korreksion yondashgan holda olib borilishi haqidagi fikrlar bilan tanishamiz.

Kalit so'zlar: Tabiat, maxsus maktab, qizil kitob, ekologiya, nuqson, ta'lim va tarbiya

Olam va odam tiriklikning asosi hisoblanadi. Bu ikki bog'liqlik bir-birini to'ldirish bilan bir qatorda, bir-birisiz mavjud ham emas. Shu bois, dunyoga kelgan chaqaloqning ilk taassurotlari tabiatni tanishdan boshlanadi. Uy ichida injiqlik qilayotgan bolani, tabiat qo'yniga olib chiqqanda tin olishiga e'tibor qaratganmisiz? Kichkintoyni ovutish uchun amalga oshiradigan mazkur xatti-harakatlarimiz aslida undagi qiziquvchanlik, sertasurotlik fazilatlarini tarbiyalar ekan. Mutaxassislarning izohlashicha, ochiq havo, atrofdagi tabiiylik va rang-baranglik go'dak bosh miyasiga hissiy impulslarni yuboradi, natijda bolada emotsional holat yuzaga kelib, kayfiyat ko'tarilishi sodir bo'ladi. Bu tabiatning bir bo'lagi inson tanasida yashashidan dalolat.

Afsuski kishilik jamiyatida ona tabiatga munosabat o'zgarmoqda. Zavod va fabrikalar qurilishi, xazonlarni yoqish, ichimlik suvini isrof qilish, suv havzalariga oqizilayotgan zaharli oqavalar, chiqindilar ko'laminig tobora ko'payib borayotgani atmosfera havosining buzilib, hayvonot va nabotot olaminig halokatiga sabab bo'lmoqda. "Qizil kitob"ning ham bo'yiga, ham eniga kengayayotgani naqadar achinarli hol. Bu insoniyat ham falokat yoqasida degani. Dunyo ahli olamni asrash to'g'risida bejizga bong urmayapti. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda yer yuzi aholisining 40 foizi mutlaqo ichimlik suvisiz qolgan. Chiqindilar ummoni, turi infeksiyalar uyasiga aylanib kasalliklarni keltirib chiqarayapti. Atmosferaning buzilishi natijasida tug'ma nogironlik holatlari ko'payayotgani olimlar tomonidan o'z isbotin topdi. Ayniqsa, ekologiya ifloslanishi kelajak avlod taqdiriga jiddiy xavf tug'dirishi mumkinligi, ko'pchilikni havotirga solib qo'ydi. Shu sabab atrof-muhit muhofazasia global vazifa sifatida qaralib, bir qator xalqaro xujjatlar qabul qilindi. Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Biz pedagoglar zimmasida turgan vazifa esa tabiatni sevuvchi, uni asrab-avaylashga qodir kelajak avlodni tarbiyalashdir.

Uzluksiz ta'lim tizimining o'zbek modelini aniqlab bergan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talabiga binoan maxsus ta'limda ham barcha ta'lim-tarbiya qatorida ekologik tarbiya mazmunini ishlab chiqish taqazo etiladi. Yordmchi maktab o'quvchilarida ekologik bilimni, ekologik ong va madaniyatni shakillantirishda avvalo maktab o'qituvchilarining shu sohadagi tushunchalarini mukammallashtirib olish zarur. Yordamchi maktab o'qituvchisi bolaning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi, tarbiyani amalga oshirishda oila bilan hamkorlik o'rnatishi lozim. Shuningdek, yordmchi maktab o'quvchilari bilan ta'lim-tarbiya vazifalarini siyosiy, huquqiy, axloqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga kompleks tizim asosida korreksion yondashgan holda hal etish kerak bo'ladi.

Jismonan nuqsoni bor bola yordamga ko'proq muhtojdir. Shu bois, unga tabiatni sevishni o'rgatishdan oldin ona zaminning insoniyatga qanchalik g'amxo'rlikni ongiga singdirib borish lozim. Buni tabiat hodisalari va ularning insoniyatga nechog'lik zarurligi to'g'risidagi misollar bilan amalga oshirish mumkin. Masalan, tong havosi yurak va o'pka faoliyati uchun zarurligini, quyoshning tafti bizni sovuqdan asrashini, yerdagi hayotni ta'minlab turishini, ona zamin insoniyatni boqishini, o'simliklar olami nafas olishimiz uchun zarur bo'lgan kislorod manbai ekanligini bola to'la anglashi lozim. Shundan so'ng jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, inson faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlari haqida ma'lumotlar berib boring. Turli-tuman ranglarga boy, betakror va xushmanzara tabiat, bola didini o'stirishda katta manba hisoblanadi. Murg'ak qalb egasini atrofdagi go'zallikni payqay olishga o'rgatish estetik va ekologik tarbiyaning zarur elementidir.

Imkoniyati cheklangan bolalarning tabiat mo'jizalari, kishilar mehnatidan olgan taassurotlarini so'z bilan ifoda etish qobiliyati sayr-tomoshalardan so'ng o'z samarasini ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganilayotgan mavzu yoki o'zlashtirilayotgan bilimlar bo'yicha har bir o'quvchi o'ziga xos tasavvurga ega bo'ladi. Ana shu tasavvur asosida o'quv topshiriqlari bajariladi. O'quvchining o'quv faolligi bilimlarni o'zlashtirishda shaxsiy tajribaga qay darajada tayana olishi yoki shaxsiy tajribani o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltira bilishi bilan belgilanadi.

Daraxtlardan oltindek tovlanib barglar yerga to'shalmoqda. Yoki daraxtlar tagidagi ilon izli ariqchadan to'lqinlanib suv oqmoqda.

Uning atrofidagi sarvqomat chinorlar, qarag'aylardan tortib, kichik nihollargacha, maysalardan tortib xushbo'y hid taratib turgan rayhonlargacha, ana shu suvdan bahra olib, yashnab turganini jajji tasavvurlarda jonlantiraolish lozim...

Balki bu ajoyib manzara bola uchun bir qarashda unchalik qiziq tuyilmas, lekin ota-ona tabiat suratini nihoyatda serjilva ekanini, uni ko'rib ko'ngilda zavq uyg'onishini farzandiga tushintira bilishi darkor, toki bola ham shularga qarab

maftun bo'lsin. Sayrdan so'ng bola bilan taassurotlari haqida suhbat qurilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hamma bolalar qatori imkoniyati cheklanganlari ham qush va hayvonlarni sevadi. Bu o'rinda yana ota-onalarning jigarbandiga, o'qituvchilarning o'quvchilariga hayvonot va nabotot olamining sinoatlari haqida bergan ma'lumotlari muhim. Buning uchun ularning o'zlari ham doimo izlanishda bo'lishi turgan gap. Aslida tabiat barchani teng qilib yaratadi. Jismida nuqsoni bor bolaning qaysidir bir qirradi o'z tengdoshlarinikidan farq qilmaydi. Faqat undagi qobiliyatni vaqtida payqash, to'g'ri tarbiyalay olish kerak. Shundagina, bunday bolalar chin ma'noda baxtiyor insonlarga aylanishadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Scienceweb academic papers collection*.
2. Muzaffarova, X. (2021). НАРАКАТ-ТАҲАНЧ А'ЗОЛАРИ ЖАРОНАТЛАНГАН БОЛАЛАР. *Scienceweb academic papers collection*.
3. Muzaffarova, X. (2021). ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТА. *Scienceweb academic papers collection*.
4. Muzaffarova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarning muloqot munosabatlarining pedagogik-psixologik asoslari. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОН-РИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Scienceweb academic papers collection*.
7. Muzaffarova, X. (2021). ТА'ЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРҲОНИДА ИННОВАТСИОН УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА О'ҚИТУВЧИНИНГ МАНОРАТИ. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Muzaffarova, X. (2021). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Muzaffarova, X. (2021). HORIJY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIV BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. .
11. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. *Scienceweb academic papers collection*.

13. Muzaffarova, X. (2021). МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.
14. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIMGА JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Muzaffarova, X. (2020). Болаларнинг мактабга психологик тайёргарлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Muzaffarova, X. (2020). Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondashish usullari. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Muzaffarova, X. (2020). КОРРЕКЦИОННО-ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РАБОТА С ДЕТЬМИ ИМБЕЦИЛАМИ. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Muzaffarova, X. (2020). ТОПИШМОҚЛАР ВОСИТАСИДА БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Muzaffarova, X. (2020). ЁРДАМЧИ МАКТАБ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Muzaffarova, X. (2021). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARGA BARVAQT YORDAM TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
22. Muzaffarova, X. (2021). ИМКONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN OLIV BORILADIGAN TA'LIM-TARBIYA ISHLARI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scienceweb academic papers collection*.
23. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ ЎҚУВЧИЛАР МУЛОҚОТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
24. Muzaffarova, K. N., & XXX, O. I. (2020). IDENTIFICATION OF MENTALLY RETARDED CHILDREN. *Scienceweb academic papers collection*.
25. Muzaffarova, X. (2020). THE CORRECTIVE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
26. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Scienceweb academic papers collection*.
27. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Scienceweb academic papers collection*.
28. Muzaffarova, X. (2020). ТОПИШМОҚЛАР ВОСИТАСИДА БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШ. *Scienceweb academic papers collection*.

29. Muzaffarova, X. (2021). HORIJY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. *Scienceweb academic papers collection*.
30. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, (2)*.
31. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.
32. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.